

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
24 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	



MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONOYATLARI

Soatova Nodira Boboxanovna

ORCID: 0000-0003-4528-9795

nodirasoatova1979@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar»
kafedrası dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy budjetlarningsoliqli daromadlarining shakllanishi bilan bog'liq ayrim muammolar aniqlangan hamda mahalliy budjetlarning soliqli daromad bazalarini mustahkamlashgaqaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Soliq tizimi, soliq siyosati, daromad siyosati, daromad bazalari, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, davlat budjeti, xududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, soliqli daromadlar, mahalliy budjet, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar.

Abstract: This article identifies some problems related to the formation of tax revenues of local budgets and develops scientific proposals and practical recommendations aimed at strengthening the tax revenue bases of local budgets.

Keywords: Tax system, tax policy, revenue policy, revenue bases, mandatory payments, tax rates, state budget, regional finance, local government bodies, inter-budgetary relations, legal entities, individuals, taxable income, local budget, local budget planning, local taxes.

Аннотация: В статье обозначены некоторые проблемы, связанные с формированием налоговых доходов местных бюджетов, а также разработаны научные предложения и практические рекомендatsii, направленные на укрепление налоговой базы доходов местных бюджетов.

Ключевые слова: Налоговая система, налоговая политика, доходная политика, доходные базы, обязательные платежи, налоговые ставки, государственный бюджет, региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, налогооблагаемый доход, местный бюджет, планирование местного бюджета, местные налоги.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy budjetlarningsoliqli daromadlarining shakllanishi bilan bog'liq ayrim muammolar aniqlangan

hamda mahalliy budjetlarning soliqli daromad bazalarini mustahkamlashgaqaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



KIRISH

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliya-lashtirish, budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir[1].

Hududlarning kompleks rivojlanishi, uning iqtisodiy salohiyati, xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qila olish qobiliyati ko'p jihatdan hududlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Bu borada Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF – 60-sonli Farmonida keltirilgan[2]. Ta'kidlash joizki, hududlarni kompleks rivojlantirishda mahalliy budjetlarning o'rni yuqori bo'lib, ko'plab hududiy loyihalarning amalga oshirilishi, aholiga o'z vaqtida sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi mahalliy budjetlarning mustaqilligi va daromadlarning barqarorligiga bog'liq hisoblanadi. Soliqli tushumlarni mahalliy budjetga to'lash tizimini takomillashtirishdan maqsad, avvalo, soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash soliqli daromadlar bazasini mustahkamlashdir. Buning uchun budjet daromadlarini soliq tushumlari bilan ta'minlaydigan soliq to'lovchilarga soliqqa oid fiskal va boshqa vazifalarni bajarish majburiyati yuklanadi. Shu boisdan, mahalliy budjetga tushadigan soliqlar mohiyati va mazmunini chuqur nazariy tadqiq etish hamda ularning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini belgilash - soliq borasida olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Soliq islohotlari yo'nalishini belgilash uchun esa avvalo, bevosita soliqlarning o'zaro ta'sir doirasini va uzviy bog'liqlik darajasini baholash lozim. Buning uchun bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi nisbat munosabatlarini o'rganishga to'g'ri keladi[3]. Mahalliy budjet soliqli daromadlarini budjetga to'lash munosabatlarini isloh qilishda davlat va mahalliy budjetlarning soliqli daromadlari o'rtasidagi nisbiy munosabatlarini o'rganish bilan birga soliqli va soliqsiz daromadlarini undirish mexanizmlarini bilish, ularni fiskal ahamiyatini yaqqolroq ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish muhimdir. Bizga ma'lumki budjetning soliqli tushumlari budjet daromadida muhim rol o'ynaydi, shuningdek aytish joizki, mahalliy budjetga to'liq holda qoldiriladigan soliqlar va belgilanga miqdorlarda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbaidir. Shu bois soliqli tushumlarning o'z vaqtida mahalliy budjetga kelib tushishi va undirilishida mavjud muammolarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda budjet tizimida olib borilayotgan islohotlar mahalliy budjetlar daromad manbalarini barqarorligini ta'minlashga asos bo'lib hisoblanmoqda. Hozirgi kunda hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy budjetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari dolzarb hisoblanadi.

Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro yetishga imkon yaratib beradi. Respublika va mahalliy budjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy budjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy holati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy budjetlarning samarali shakllantirish masalalarini tadqiq yetish va tahlil qilish zarurdir. Mahalliy budjetlar orqali hududlarning daromadlari tarmoqlararo, hududlararo hamda ijtimoiy qatlamlararo qayta taqsimlanadi. Mazkur taqsimotning oqilona tashkil yetilishi, samarali faoliyati budjet intizomiga

qat'iy rioya yetilishiga bog'liqdir. Mahalliy budjetlar tizimi butun mamlakat miqyosida keng ko'lamli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshiruvchi davlatning moliyaviy dastagidir.

Respublikamiz moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budjetlar daromadlar barqarorligini ta'minlash zaruriyatini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlash, budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish, budjet tizimining nazariy va amaliy jihatlarini, ularning daromadlarini shakllantirish, soliqli daromad bazalarini mustahkamlash masalalari xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Soliqlar fiskal siyosatning bir qismi sifatida namoyon bo'lishini K.Макконелл, С.Брю [4] o'zlarining ishlarida ko'rsatib o'tganlar. Shu bilan birga, ular iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda hal etiladigan vazifalardan kelib chiqib, fiskal siyosatni to'sqinlik qiluvchi yoki rag'batlantiruvchi siyosatlar ekanligini isbotlashga harakat qilganlar. Ular o'zlarining "Экономикс" asarida "Fiskal siyosatning asosiy maqsadi-ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Xususan, mahalliy olimlar, J.Esmurzaevning tadqiqot ishi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirish mexanizmini takomillashtirishga [5], A.Mamanazarovning ilmiy ishi mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalariga [6], X.Qobulovning ilmiy tadqiqot ishi hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlariga bag'ishlangan[7]. Shuningdek, A.Xayriddinovning tadqiqot ishida mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari asoslab berilgan[8]. U.O'roqovning ilmiy ishida mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishni takomillashtirish yo'llari o'rganilgan[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlash va uni takomillashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, mahalliy budjet daromadlari tarkibini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlarning daromad potensialini hududdagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish (soliqqa tortish tizimini va soliqlarning birlashtirilishi tartibini takomillashtirish orqali), soliqsiz tushumlar ulushini ko'paytirish maqsadida yer va ko'chmas mulklarni ijruga berish tartibini takomillashtirish, turli yo'nalishlarda (jumladan, infrastruktura sohasi bo'yicha) mahalliy davlat organlari va xususiy sektor sherikchiligini yo'lga qo'yish, shu bilan bir qatorda munitsipal uy-joy qurishga yo'naltirilgan munitsipal obligatsiyalarni chiqarish, olingan daromad hisobidan infratuzilmani rivojlantirishga investitsiya qilish hamda hududlar darajasidagi davlat uy-joy siyosati va aholining kam ta'minlangan qismiga moliyaviy yordam berish va qulay shart-sharoit yaratishga yo'naltirish orqali oshirish mumkin. Shu bilan birga, hududlarning demografik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishlarini hisobga olgan holda taqsimlanish me'yorlarini ishlab chiqish hamda soliqli daromadlarni ham vertikal, ham gorizontal taqsimlash, ya'ni alohida hududlar budjetlariga bir qator soliqlarning o'tkazib berilishi mexanizmlari qo'llanilishi muhim hisoblanadi. Ilk bor, "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan respublika budjeti xarajatlari vazirlik va idoralar kesimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan, mahalliy budjetlar xarajatlari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan hamda to'liq mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi. 2020-yildan boshlab barcha davlat maqsadli jamg'armalari va chetdan jalb qilingan tashqi qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan davlat xarajatlari konsolidatsiyalashgan davlat budjetida aks ettirilib, budjet qamrovi va ochiqligi darajasi kuchaytirildi.

Xalqaro standartlarga muvofiq umumiy fiskal balansining hisobini yuritish yo'lga qo'yildi[10]. Chunki mahalliy budjetlar barqaror daromad bazalariga ega bo'lsa, ular xizmat qiluvchi mahalliy hududlar doirasida



iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashda muammolar bo'lmaydi hamda mavjud muammolar osonlik bilan hal etiladi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar o'ziga xos tarzda klassifikatsiya qilinadi. Bunda ular davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatiga, o'zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab ikkiga bo'linishi mumkin: 1) qonunchilik hokimiyat organi tomonidan joriy yetiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar; 2) mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar. Budget munosabatlarini tartibga solishda xususan, mahalliy budgetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda oldin xarajat me'yorlari rejalashtiriladi va shunga mos ravishda daromadlar muvofiqlashtiriladi hamda shuning barobarida mahalliy budgetlar balansligini ta'minlashga erishiladi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlari miqdori [11]. mlrd. so'm


T/r	Hududlar nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2953,3	2743,9	1614,2	2 356,2	2 703,3
2.	Andijon viloyati	2624,6	2105,9	2352,2	3 059,4	3 802,7
3.	Buxoro viloyati	2409,5	1782,9	1935,4	2 904,0	3 817,2
4.	Jizzax viloyati	1240,9	1058,0	1212,9	1 727,2	2 184,9
5.	Qashqadaryo viloyati	3783,9	2468,8	2570,3	3 483,0	4 561,2
6.	Navoiy viloyati	1877,8	1540,9	1535,8	2 186,3	2 993,6
7.	Namangan viloyati	2237,8	1763,0	1970,6	2 903,2	3 713,4
8.	Samarqand viloyati	2567,2	2385,6	2657,0	3 955,8	4 958,8
9.	Surxondaryo viloyati	1844,9	1605,7	1754,7	2 466,9	3 042,3
10.	Sirdaryo viloyati	816,7	716,5	745,7	1 104,5	1 406,1
11.	Toshkent viloyati	3721,5	2395,5	3009,8	4 378,9	5 866,2
12.	Farg'ona viloyati	3836,1	2677,3	2904,9	4 242,5	5 437,8
13.	Xorazm viloyati	1467,3	1302,7	1442,7	2 220,6	2 719,2
14.	Toshkent shahri	3752,8	3156,3	4068,6	6 044,7	7 739,3
	Jami	35134,2	27702,9	29774,8	43 033,2	54 946,0

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin: mahalliy budgetlar daromadlari umumiy summasining barcha omillar hisobidan 1,5 martaga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy budget daromadlarining mos ravishda ularning solikli daromadlari tegishli davr mobaynida 1,8 martaga o'sganligini qayd etish lozim.

Mahalliy budgetlar daromadlari tarkibida hududlar budjeti daromadlari hajmini aniqlashda hamda solikli daromad bazalarini shakllantirishda eng muhim jihatlaridan biri, bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma ob'ektlarining xilma-xilligi xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq tafovutlardan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, soliq to'lovchilar sonining ko'pligi, tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti, aholi daromad manbalarining miqdoriga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuningdek, hududlar budjeti daromadlarining jami mahalliy budgetlar daromadlari tarkibidagi ulushining sezilarli darajada farqlanishi aholi soni ya'ni mehnat resurslari turlicha bo'lganligi, tabiiy shart-sharoitlari, hududlarning iqtisodiy salohiyati kabi omillarga ham bevosita bog'liq. Mazkur omillar o'z navbatida hamda tabiiy ravishda mahalliy budgetlar solikli daromadlar bazasining shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga, Toshkent shahrining shahar budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi budjet qurilishi, budjet tizimining amal qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalaridagi (markaziy, hududiy va mahalliy) budjet borasidagi vakolatlari budjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Soliqlar va boshqa daromadlar belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin[12].

Tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan quyidagi rasmni keltirish keltirishimiz mumkin. (1-rasm).



1-rasm. Mahalliy budjetlarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari[13].

1-rasmda keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjetlar viloyat, tuman va shahar budjetlarini o'zida ifoda etib, ushbu budjetlar mablag'lari mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga doir turli vazifalarni bajarish, mahalliy budjetga qarashli korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini moliyalashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish kabi ishlarni amalga oshirish (moliyalashtirish) uchun yo'naltiriladi. Bu kabi hayotiy muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, birinchi navbatda, ularning moliyaviy asosiga borib taqaladi. Mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida budjetga undiriladi, ya'ni soliqlardan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni shakllantirish va ishlatishning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, Bojxona Kodeksi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, nizomlar hamda turli huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Shunday qilib aytish joizki, mahalliy budjet, budjet tizimining alohida bo'g'ini hisoblanib, uning mustaqilligi davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi va daromadlarining hududiy manbalar hisobiga shakllanish tamoyillari asosida tashkil topmoqda.

Mahalliy budjetlarning daromadlar shuningdek o'z daromadlari va tartibga soluvchi daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Ularning o'z daromadlari asosini solikli va soliqsiz daromadlar tashkil etib, solikli daromadlarga mahalliy budjetga to'liq holda qoldiriladigan soliqlar va umum davlat soliqlaridan ajratmalar, soliqsiz daromadlariga mahalliy hokimiyatlarga qarashli bo'lgan korxona va tashkilotlardan tushumlar hamda mahalliy hokimiyatlarga qarashli bo'lmagan ammo ularning hududida faoliyat yuritayotgan tashkilotlardan ijara to'lovlari shaklida kelib tushgan tushumlar va boshqa yig'imlar tashkil etadi. Bu tushumlarning asosiy qismini solikli tushumlar tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil va tadqiqot natijalari mahalliy budjetlarning moliyaviy holati, solikli daromadlarining shakllanishi va solikli daromad bazalarini mustahkamlash masalasida quyidagi bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

- mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning daromadlari yetarli miqdorda emas. 2019–2023-yillar davomida mamlakatimizda mahalliy budjetlar daromadlari umumiy summasi darajasi barcha omillar hisobidan 1,5 martaga o'sganligini ko'rishimiz mumkin;
- mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash hamda mahalliy budjetlar xarajatlari samaradorligiga erishishda eng muhim jihat, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda soliq solish manbalarni ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi;
- mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda mol-mulk va yer soliqlarining roli sezilarsiz darajada bo'lib, hududlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida va samarali hal etish imkonini bermaydi;




- solikli daromadlar tarkibidagi mol-mulk va yer soliqlarini undirish jarayonida o'ziga xos muammolarning mavjudligi. Masala shundaki, aholi boshqa soliq'larga nisbatan ushbu soliq'larni o'z vaqtida to'lashga harakat qilmaydi va bu narsa uning undirilishi jarayonida turli muammolarni yuzaga keltirib, mazkur soliq'larni undirilishi jarayonining takomillashmaganligidan dalolat beradi;

- mahalliy soliq'larning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi natijasida ularning yig'iluvchanlik darajasining yetarli emasligi.

Yuqorida qayd etilgan soliq'larning mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi salmog'ini (hissasini) oshirish hamda ularni budjetga undirish mexanizmini takomillashtirish, shu asosda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtning o'zida mazkur masala mahalliy soliq'larning miqdorlarini belgilash, ayrim soliq'larning stavkalarini oshirish, soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish va soliq tizimida pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash tadbirlarini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283 -sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.
3. Vahobov A., Qosimova G.A. Davlat moliyasini boshqarish. – T.: Iqtisod-moliya, 2008 y.
4. Макконелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика.– Москва: Республика, 1992.– С.249.
5. Esmurzaev J. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliq'lar va yig'implarni undirish mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida): I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2007. – 20 b.;
6. Mamanazarov A. Mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliq'larning rolini oshirish masalalari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2002. – 22 b.;
7. Qobulov X. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2006. – 129 b.;
8. Xayriddinov A. Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2009. – 22 b.;
9. O'roqov U. Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishni takomillashtirish yo'llari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2020. – 25 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrdagi «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4555-son Qarori.
11. <https://openbudget.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
12. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 52-modda. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
13. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100